

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KUVATOVA DINARA ANVAROVNA

**SUG‘URTA TASHKIOTLARIDA DAROMADLAR VA
XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Kuvatova Dinara Anvarovna

Sug‘urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar hisobini takomillashtirish.....3

Куватова Динара Анваровна

Совершенствование учёта доходов и расходов страховых организаций27

Kuvatova Dinara Anvarovna

Improvement of accounting of income and expenses of insurance organizations51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....56

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KUVATOVA DINARA ANVAROVNA

**SUG'URTA TASHKILOTLARIDA DAROMADLAR VA
XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi
Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4PhD/Iqt4752 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonct" axborot ta'lim portalida (www.ziyonct.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ochilov Ilyos Keldiyorovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedjanov Karimjon Bakidjanovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mamatqulov Murodjon Shukurovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "11" 10 soat 16 da
majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A uy, e-mail:
ilmiykengash@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish
mumkin (1790 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy.
Tel.: (+99871) 234-53-34. e-mail: kutubxona@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil "15" 10 daqi 10 - raqamli reyestr bayonnomasi)



T.Z. Teshabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

J.X. Ataniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

I.N. Oo'ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sug'urta tashkilotlarining o'рни va ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu o'zgarishlar dunyodagi global xavf-xatarlar, iqtisodiy noaniqlik, ekologik muammolar va ijtimoiy ehtiyojlarning ortishi bilan bog'liqdir. Avvalo, so'nggi yillarda tabiiy ofatlar, pandemiyalar va kiberxavflar kabi global xatarlar soni va ta'siri oshib bormoqda. Bunday vaziyatlarda sug'urta tashkilotlari jamiyatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda markaziy o'rin tutadi. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda sug'urta tashkilotlari muhim ahamiyatga ega. Ular kichik va o'rta biznesni himoya qiladi, yirik korxonalarni qo'llab-quvvatlaydi hamda kredit tizimida ishonchli kafolat vazifasini bajaradi. World Insurance Associates LLC ma'lumotlariga ko'ra, "2024-yilda Global sug'urta mukofotlari Jahon bo'yicha yig'ilgan umumiy sug'urta mukofotlari 7,1 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan hayot sug'urtasi (life insurance) 3,1 trln AQSh dollarni tashkil qilgan"¹. Bu esa sug'urta bozorining yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushini oshirishga xizmat qiladi. Sug'urta xizmatlarining rivojlanishi aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga va investitsiya muhitini yaxshilashga hissa qo'shadi.

Jahonda sug'urta tashkilotlari buxgalteriya hisobi konsepsiyasi va metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularda buxgalteriya axborotlarining haqqoniyligi va moliyaviy barqarorlikka ta'siri, MHXSning joriy etilishi, reyting ko'rsatkichlari hamda baholash standartlarining takomillashuvi o'rganilmoqda. Shunga qaramasdan, sug'urta tashkilotlarida to'lov qobiliyatini oshirish, hisob siyosati va moliyaviy hisobotni xalqaro talablarga mos ravishda yuritish, xarajat va daromadlarni tan olish kabi masalalar hanuzgacha to'liq yechimini topmagan. Bu muammolarning yetarlicha o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan sug'urta tashkilotlarida daromad va xarajalar hisob siyosatini ishlab chiqish, unga MHXSni amaliy jihatdan tatbiq qilish hamda uning talablari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish, sug'urta faoliyatining daromad va xarajatlarini tan olish va sug'urta tashkilotining moliyaviy potensialini aniqlash bo'yicha "...sug'urta tashkilotining reyting ko'rsatkichlarini aniqlash uslubiyotini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda"². Sug'urta bozorini rivojlantirish jarayonida tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, daromad va xarajatlarni shaffof hisobga olish hamda ularning bozordagi nufuzini baholash mezonlarini yangilash orqali reyting ko'rsatkichlarini aniqlash uslubiyoti takomillashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-son "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil

¹ Swiss Re Institute (2024). World insurance: global premium volumes. <https://www.swissre.com>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-avgustdagi PQ-5217-son "Sug'urta bozorini isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – lex.uz.

24-fevraldagi PQ–4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi VM–507-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, shuningdek, buxgalteriya hisobiga tegishli bo‘lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobining nazariy hamda uslubiy asoslari xorijlik olimlar Doron Nissim, Liu J., M. Jabbour, P.N. Madsen, E. Phillips, Kamanda Morara ilmiy ishlarida keng yoritilgan³. MDH mamlakatlari olimlari, xususan, S. Kulikov, O. Gorodetskaya, I. Julega, E. Reznikova, K. Repina, I. Shvetsova, N. Kuzminov, G. Chernova, R. Yuldashev, E. Mamedov, O. Mozolkina, V. Petrov, A. Petrov, G. Skachko, T. Rinchinoning ilmiy ishlarida sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va tahlilning ayrim yo‘nalishlari tadqiq etilgan⁴.

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil sohasida tadqiqot olib borgan olimlar A. Karimov, N. Karimov, A. Pardayev, R. Do‘smuratov, M. Pardayev, B. Isroilov, K. Axmadjonov, A. To‘ychiyev, Sh. Ilxamov, E. Gadoyev, A. Avlaqulov, A. Ibragimov, K. O‘razov, S. Tashnazarov, N.B. Abdusalomova, M. Po‘latov, B. Maxsudov, R. Xolbekov, B. Xasanov, B. Alimov, M. Abduraimova va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini yoritilgan bo‘lib, ammo sug‘urta tashkilotlarida

³ Doron Nissim Analysis and valuation of insurance companies. Center for Excellence in Accounting & Security Analysis. November 2010. Cash flow king in valuations? Financial Analysts Journal, 63, 56-68. 2007. Liu J.: “On Sharpe-ratio-based optimal insurance design (Master’s thesis, University of Calgary, 2024.abbour, M. (2013). Investigation of risk management changes in insurance: The implementation of enterprise risk management (ERM) practices. Brunel University.URL: <https://bura.brunel.ac.uk/bitstream/2438/7964/1/FulltextThesis.pdf>. Madsen, P. H. (2023). Risk management in the insurance industry. Copenhagen Business School.URL: https://research.cbs.dk/files/98728893/1589526_MASTER_THESIS_FINAL.pdf. Phillips, E. (2023). Strategies to reduce employee turnover in the insurance industry. Walden University.URL: <https://scholarworks.waldenu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=13456&context=dissertations>. Kamanda Morara, Athenia Bogandi Sibindi. Determinants of Financial Performance of Insurance Companies: Empirical Evidence Using Kenyan Data. Journal of Risk & Financial.

⁴ Куликов С.В. Финансовый анализ страховых организаций: учебное пособие / С.В. Куликов. О Ростов н/Д.: Феникс, 2009. О 224 с., Анализ и совершенствование системы страхования организаций: Монография / Городецкая Ольга Станиславовна – М.: Леннех Корп, — Подготовка макета: Издательство Нобель Пресс, 2013. – 176 с, Жулега И. А. Методология анализа финансового состояния предприятия: монография / И.А. Жулега; ГУАП. — СПб., 2006. — 235 с., Резникова Е.В. Оценка финансовой устойчивости страховых организаций.//«Экономика и социум» №1(14) 2015. с. 342-347. www.iupr.ru, Репина К.В. Оценка финансового состояния страховой компании по данным МСФО-отчетности.//Журнал —Успехи современного естествознания, №12, 2014. с. 95-96., Швецова И.Н., Пашкевич М.А. Анализ и управление финансовым состоянием страховой компании.//«Экономика и социум» №2(33) 2017. с. 8 www.iupr.ru, Кузьминов Н.Н. «Особенности бухгалтерского учета в страховых компаниях», Изд. Второе, Анкил, Москва 2000г , Страхование: экономика, организация, управление: Учебник; В2 т./СПбГУ, Подред. Г.В.Черновой. Т.1. С.751, Т.2. С.671– М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2010 г.

бухгалтерия ҳисобини ташкил қилишнинг айрим назарий жиҳatlari қисман о'з аксини топган⁵.

Respublikamiz olimlaridan I. Ochilov, M. Xodjayeva, N. Rizayev, A. Raximov va boshqalar o'zlarining ilmiy ishlari va risolalarida mavzuning ba'zi жиҳatlарини yoritganlar. Ularning tadqiqot ishlariда sug'urtaning mohiyatiga, iqtisodiy ahamiyatiga va makroiqtisodiy tomonlariga ko'proq e'tibor qaratilgan⁶.

Sug'urta tashkilotlarida бухгалтерия ҳисобини takomillashtirishda M.Xodjayevaning⁷ ilmiy tadqiqotida sug'urta tashkilotlarida бухгалтерия ҳисоби va auditining айрим жиҳatlari, M. Abduraimovanning⁸ ilmiy ishida sug'urta tashkilotlari auditi, B. Alimovning⁹ tadqiqotida esa sug'urta kompaniyalari бухгалтерия balans ko'rsatkichlarining kompleks tahlilini o'tkazish masalalari yoritilgan. Shunday bo'lsada, respublikamizda olib borilgan tadqiqotlarda aynan sug'urta tashkilotlarida бухгалтерия ҳисобини ташкил қилиш metodologiyasiga qaratilgan masalalar tizimli ravishda ilmiy-nazariy va metodologik жиҳatdan to'liq asoslangan va o'z yechimini topgan, deya olmaymiz. Bu esa ushbu dissertatsiya mavzusini tanlash va tadqiqot vazifalarini belgilashga asos bo'ldi.

⁵ Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудит. Монография. – Тошкент: “Iqtisod-moliya”, 2008. – 152 б.; Каримов Н.Ф. Тижорат банкларида ички аудит: Монография. -Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси — Фан нашриёти, 2006. -262 б.; Пардаев А.Х., Пардаева З.А. Бошқарув ҳисоби / Дарслик – Т.: «Тафаккур» нашриёти, 2014. – 396; Дусмуратов Р.Д. Бухгалтерия ҳисоби назарияси. – Т.: Yangiyul polygraph service. 2007 й. – 352 б; Пардаев М.Қ. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида иқтисодий таҳлилниң назарий ва методологик муаммолари: Икт.фан.док. дис. автореф. – Тошкент: Ўз.Р БМА. 2002. – 43 б.; Пардаев М.Қ. Иқтисодий таҳлил назарияси. Самарқанд. 2001 й; Туйчиев А.Ж. Мажбуриятлар бухгалтерия ҳисоби ва таҳлилининг назарий-методологик муаммолари. Дис...икт.фан.д-ри. – Т.,2011; Ҳасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби: назария ва услубиёт. – Т.: Молия, 2003 й. – 248 б.; Махсудов Б.Ю. Бошқарув ҳисобида бюджетлаштириш методологиясини такомиллаштириш. Икт. фан. док. дисс. автореферати. – Т.: ТМИ, 2018; Исроилов Б.И. Солиқлар ҳисоби ва таҳлили: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Монография. – Т.: Ўзбекистон, 2006; Аҳмеджонов К. Б. Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит методологиясини такомиллаштириш: Иқтисод фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. — Тошкент, 2016. — 48 б.; Пўлатов М.Э. Интеллектуал капитал ҳисоби ва таҳлили: назария ва амалиёт масалалари. Монография. – Т.: Иқтисодиёт, 2012. – 166 б.; Ўразов К.Б. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида бухгалтерия ҳисобининг концептуал масалалари. Монография. – Т.: Фан, 2005. -236 б. Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш // Монография. -Самарқанд.: 2006. - 271 б.; Абдуганиев А.А. Бошқарув ҳисобини ташкил этиш муаммолари, уларнинг ечимлари. – Т.: ТМИ, 2003. –275 б.; Авлокулов А.З. “Молиявий натижалар ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш” Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати.Т.: 2019й. 72 б.; Абдусаломова Н.Б. Бошқарув ҳисоби тизимида ички назорат ва бюджетлаштириш услубиятинитакомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати; Амалий бошқарув ҳисоби. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма /А.К. Ибрагимов, Б.А. Ҳасанов, Н.К. Ризаев –Т.: —Молия, 2014. –404 б.; Исманов И.Н. Узоқ муддатли активлар бухгалтерия ҳисобининг методологик асослари // Монография. -Т.: Фан, 2006. - 172 б.

⁶ Очилов И.К. Суғурта иқтисодиёти ва унинг самарадорлиги. – Т.: «Молия», 2008. – 240б.

Абдусаломова Н.Б. Суғурта бозорини ривожлантиришнинг молиявий-иқтисодий механизмлари. – Тошкент, 2017. – 196 б. Ходжаева М.Х. Суғурта бозори ва унинг ривожланиш тенденциялари. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2016. – 154 б. Ризаев Н.К. Суғурта хизматлари бозори: назарий асослар ва ривожланиш йўналишлари. – Т.: ТДИУ, 2019. – 208 б. Раҳимов А. Суғурта – иқтисодий барқарорлик омили сифатида. – Тошкент: Фан, 2015. – 182 б.

⁷ Ходжаева М.Х. Суғурта фаолияти бухгалтерия ҳисоби ва аудитининг ҳозирги аҳволи ва уни такомиллаштириш йўллари.//и.ф.н. диссертацияси, Ўзбекистон Республикаси БМА, 2001.

⁸ Абдураимова М.А. Суғурта ташкилотлари молиявий ҳисоботини тузиш ва аудиторлик текширувидан ўтказиш тартибини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореф. Тошкент – 2020. –55 б.

⁹ Алимов Б.Б. Суғурта компаниялари бухгалтерия баланс кўрсаткичларининг комплекс таҳлилини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореф. Тошкент – 2019. –54

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sug'urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar hisobini takomillashtirish yuzasidan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sug'urta faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, hisob siyosatiga sug'urta zaxiralarini joylashtirish bo'yicha xarajatlarni hisobga oluvchi ishchi schyotlarni kiritish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

sug'urta tashkilotlarida daromadlarni to'g'ri tan olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish uchun yangi ishchi schyotlarni amaliyotga joriy etish mexanizmini ishlab chiqish;

sug'urta tashkilotlari daromadlari va xarajatlarini turkumlashning konseptual asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

sug'urta tashkilotlarining daromadlari va xarajatlarini xalqaro standartlar talablari bo'yicha tan olish va baholash usullarini qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

xarajatlarni turkumlashga oid yangi tizimi, xarajatlarni funksional turkumlash orqali sug'urta mahsulotlarining tannarxini aniqlashni takomillashtirish;

sug'urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olish bo'yicha mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

sug'urta tashkilotlarida daromad va xarajatlarning turlari, ularni hisobga olishdagi farqli yondashuvlarni tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib O'zbekiston Respublikasida sug'urta tashkilotlarining moliya-xo'jalik faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish, daromadlar va xarajatlarni hisobga olish, hisobotni tuzish va uni takomillashtirishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy tahlil va iqtisodiy-matematik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug'urta tashkilotlarida asosiy faoliyati bo'yicha xarajatlarni hisobga olishda 2111-"Sug'urta zaxiralarini joylashtirish bo'yicha ish yuritish xarajatlari" ishchi schyotini kiritish taklif etilgan;

sug'urta tashkilotlari hisob siyosatiga asosiy faoliyat bo'yicha daromadlarni hisobga olishda 9031-"Sug'urta mukofotlari bo'yicha daromadlar", 9032-"Qayta sug'urtadan olingan daromadlar", 9033-"Qo'shimcha komissiya va yig'implardan daromadlar" va 9034-"Qiymatlangan xizmat birligi usulida tan olingan daromad" ishchi schyotlarini kiritish taklif etilgan;

sug'urta tashkilotlarida axborotlarning aniqliligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida daromadlarni qiymatlangan xizmat birligi usuli orqali tan olish taklif etilgan;

sug'urta tashkilotlarida sug'urta mahsulotlari tannarxi va moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlash maqsadida xarajatlarni funksional turkumlash taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

sug'urta tashkilotlarida daromad va xarajatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida tasniflash taklif etilgan;

sug'urta tashkilotlarida daromad va xarajatlarning tahliliy hisobi takomillashtirilgan;

sug'urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni shaffof va xalqaro talablarga mos holda shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini aniq hisoblash maqsadida sug'urta mukofotlarini xizmat muddati davomida haqqoniy taqsimlash tartibi taklif etilgan;

sug'urta tashkilotlarida investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida sug'urta mukofotlari bo'yicha daromadlar hisobini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, normativ-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, sug'urta tashkilotlari faoliyatiga oid ma'lumotlarning manbalardan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining normativ-huquqiy hujjatlarini takomillashtirishda hamda sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishda joriy qilinganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, sug'urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarning turkumlanishi va hisobga olinishida MHXS asosida yuritish bo'yicha nazariy asoslarini boyitadi hamda ushbu ilmiy ishdan Oliy ta'lim muassasalarida sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi fanlarining istiqbolli yo'nalishlarini rivojlantirishda nazariy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati sug'urta tashkilotlari faoliyatini samarali boshqarishda to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun kerakli axborotlar bilan ta'minlash, daromad va xarajatlarni tasniflash va hisobga olishni takomillashtirish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslash va aksiyadorlar uchun axborotlar tayyorlash, faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta tashkilotlari buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini yagonalashtirish sohalarida salmoqli hissa qo'shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sug'urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar hisobini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

sug'urta tashkilotlarida asosiy faoliyati bo'yicha xarajatlarni hisobga olishda 2111-“Sug'urta zaxiralarini joylashtirish bo'yicha ish yuritish xarajatlari” ishchi schyotini kiritish bo'yicha taklifi “MY INSURANCE” aksiyadorlik jamiyatida amaliyotga joriy etilgan (“MY INSURANCE” aksiyadorlik jamiyatini 2025-yil 5-maydagi 01/06-6989-son ma'lumotnomasi). Natijada, asosiy va investitsion xarajatlar aniq ajratilib, hisobotlar tahlil qilish uchun tushunarli va shaffofligiga, investitsiya faoliyati samaradorligi to'g'ri baholangan va xalqaro hisobot standartlariga yaqinlashishga erishilgan;

sug'urta tashkilotlariga hisob siyosatiga asosiy faoliyat bo'yicha daromadlarni hisobga olishda 9031-"Sug'urta mukofotlari bo'yicha daromadlar", 9032-"Qayta sug'urtadan olingan daromadlar", 9033-"Qo'shimcha komissiya va yig'imlardan daromadlar" va 9034-"Qiymatlangan xizmat birligi usulida tan olingan daromad" ishchi schyotlarini kiritish taklifi "MY INSURANCE" aksiyadorlik jamiyati sug'urta kompaniyasida amaliyotga joriy etilgan ("MY INSURANCE" aksiyadorlik jamiyatini 2025-il 5-maydagi 01/06-6989-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif natijasida daromad aniq tasniflandi, tahlil qilish imkoniyati kengaydi, MHXSlariga moslashildi, haqiqiy xizmat ko'rsatilgan qismi bo'yicha real foyda ko'rsatishga erishilgan;

sug'urta tashkilotlarida daromadlarni hisobga olishni xalqaro standartlar talablari bo'yicha tan olish taklifi ishlab chiqilgan hamda "MY INSURANCE" aksiyadorlik jamiyati sug'urta kompaniyasida amaliyotga joriy etilgan ("MY INSURANCE" aksiyadorlik jamiyatini 2025-yil 5-maydagi 01/06-6989-son ma'lumotnomasi). Natijada, sug'urta tashkilotining daromadlari va xarajatlarini xalqaro standartlar talablari bo'yicha tan olishda "Qiymatlangan xizmat birligi (QXB) metodi"ni qo'llash asoslandi;

sug'urta tashkilotlarida xarajatlarni funksional turkumlash bo'yicha taklifi ishlab chiqilgan hamda "MY INSURANCE" aksiyadorlik jamiyati sug'urta kompaniyasida amaliyotga joriy etilgan ("MY INSURANCE" aksiyadorlik jamiyatini 2025-yil 5-maydagi 01/06-6989-son ma'lumotnomasi). Natijada, sug'urta tashkilotlarida xarajatlarni funksional turkumlash orqali sug'urtalash mahsulotlarini tannarxini aniqlash takomillashtirildi, xarajatlarni moliyaviy tahlil qilishi imkoniyati yaxshilandi, xarajatlarni turkumlanishi 17-son MHXS, 1-son BHXS, 37-son BHXS talablariga mos keldi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan hamda ijobiy xulosa olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 3 ta xorijiy va 2 ta respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 141 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekti, predmeti va usullariga tavsif berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy qilinishi izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning konseptual asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida O'zbekiston iqtisodiyotida sug'urta kompaniyalarining tutgan o'rne, ularni rivojlantirish

istiqbollari, sug'urta kompaniyalarida daromadlar va xarajatlarni tan olishning konseptual asoslari, buxgalteriya hisobidagi muammoli jihatlari, sug'urta zaxiralarini investitsiya obyektlariga joylashtirish va undan olinadigan daromadlarni hisobga olishning nazariy-huquqiy asoslari tadqiq qilinib, tadqiqotda belgilangan vazifalar doirasida nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Mamlakatimizda sug'urta hozirgi paytda yosh, ammo jadal rivojlanayotgan faoliyat sohasidir.

Sug'urta sohasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, 2019-yil 17-yanvardagi "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5635-sonli, 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-sonli qarorlari qabul qilingan¹⁰.

O'zbekiston sug'urta bozoridagi sug'urta kompaniyalarining dinamikasi va tarkibini tahlil qilib shuni ta'kidlash mumkinki, sug'urta turli investorlar uchun juda jozibali yo'nalishdir. Bu mamlakat hukumati tomonidan sug'urta kompaniyalarini rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratilishi bilan bog'liq. Shu bilan bir qatorda sug'urtalovchilar tomonidan tegishli to'lov qobiliyatini saqlashni nazorat qilish uchun moliyaviy barqarorlikka bo'lgan talablar ham asta-sekin o'sib borishini ta'kidlash lozim.

Quyidagi jadvalda 2023- va 2024-yillarda O'zbekiston sug'urta bozori tarkibiy ko'rsatkichlari, jumladan, sug'urta tashkilotlari, brokerlar va agentlar soni, ustav kapitali hamda ularning yillik o'zgarish dinamikasi keltirilgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorining umumiy ko'rsatkichlari¹¹

Sug'urta bozori tuzilishi	2023-yil	2024-yil	O'zgarish (+/-)
Sug'urta tashkilotlari soni	38	33	-13,2 %
<i>shu jumladan: hayot sug'urtasi bo'yicha</i>	7	5	-28,6 %
Sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln so'mda)	2 298 572	2 963 695	+28,9 %
Sug'urta brokerlari soni	8	11	+37,5 %
Aktuariylar soni	5	5	0 %
Sug'urta agentlari soni	4 736	4 804	+1,4 %
<i>shu jumladan: yuridik shaxslar</i>	1711	1704	-0,4 %
To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari	26	25	-3,8 %
bo'lgan sug'urta tashkilotlarining soni			

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-sonli qarori.

¹¹ Muallif tomonidan <https://napp.uz/uz>. O'zbekiston Respublikasida 2018–2024-yillarda sug'urta agentligining hisoboti asosida tayyorlangan.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2023–2024-yillarda O'zbekiston sug'urta bozori tarkibiy o'zgarishlarga erishgan. Sug'urta tashkilotlari soni 38 tadan 33 tagacha qisqarib, 13,2 %ga kamaygan. Ayniqsa, hayot sug'urtasi bo'yicha tashkilotlar soni 7 tadan 5 taga tushib, 28,6 %ga pasayishi bozorda konsolidatsiya jarayonlari kechayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali 2 298,6 mlrd so'mdan 2 963,7 mlrd so'mgacha oshgani (+28,9 %) kapitallashuvning kuchayganidan dalolat beradi. Sug'urta brokerlari soni 8 tadan 11 tagacha ko'payib, 37,5 % o'sish qayd etildi. Aktuariylar soni o'zgarmagan bo'lsa-da, sug'urta agentlari soni 4 736 tadan 4 804 tagacha ortgan (+1,4 %), lekin yuridik shaxslar sifatidagi agentlar soni biroz qisqargan (-0,4 %). To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zosi bo'lgan tashkilotlar soni 26 tadan 25 taga tushgani (-3,8 %) bozorda ma'lum tarkibiy o'zgarishlarni aks ettiradi.

2024-yil davomida O'zbekistonda qariyb 10 millionta sug'urta shartnomasi tuzildi. Shu davr mobaynida sug'urta mukofotlari hajmi 9,8 trillion so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 21 foizga oshgan. Sug'urta to'lovlari esa 2,2 trillion so'mga yetib, o'tgan yilga qaraganda 9 foiz o'sish kuzatildi. Sug'urta kompaniyalarining jami aktivlari 11,8 trillion so'mdan oshib, bu 2023-yilga nisbatan 24,9 foizga ko'pdir.

Shuningdek, 2024-yil davomida jami 4 648 ta murojaat ko'rib chiqilgan bo'lib, ulardan 2 193 tasi qanoatlantirilgan. Natijada umumiy hisobda 34,6 milliard so'm miqdorida sug'urta to'lovlari amalga oshirilgan¹².

2-jadval

Jahon mamlakatlari sug'urta bozori ko'rsatkichlari (2023-yil)¹³

Mamlakat	Jami sug'urta mukofotlari (mlrd AQSh dollarida)	YaIMda ulushi, %	Aholi jon boshiga (AQSh dollarida)
AQSh	3268	≈11.7	≈9600
Xitoy	724	≈4.1	≈510
Buyuk Britaniya	375	≈11.3	≈5540
Yaponiya	363	≈8.6	≈2920
Fransiya	283	≈9.1	≈4140
Germaniya	245	≈5.5	≈2940
Koreya Respublikasi	186	≈10.8	≈3600
Kanada	171	≈8.0	≈4270
Italiya	159	≈7.9	≈2700
Hindiston	136	≈4.0	≈95
Niderlandiya	93	≈9.2	≈5200
Braziliya	84	≈3.9	≈410
Ispaniya	83	≈5.3	≈1710
Tayvan	78	≈9.9	≈3330
Avstraliya	73.7	≈4.4	≈2770
Gonkong	65.7	≈17	≈8760
Shveytsariya	61.2	≈7.1	≈6,950
Meksika	45.1	≈2.5	≈350
Daniya	44.4	≈10.9	≈7460
Shvetsiya	44.2	≈7.8	≈4210

¹² “Ў3.Daily.uz”

¹³ Swiss Re Institute (2024); IMF WEO Database (2024); UN WPP (2023).

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, AQSh va Xitoy sug‘urta bozorida yetakchi mamlakatlar hisoblanadi. AQShda jami sug‘urta mukofotlari 3,2 trillion dollardan ortiq bo‘lib, aholi jon boshiga 9600 dollar to‘g‘ri keladi. Gonkong, Daniya va Buyuk Britaniyada sug‘urta xizmatlarining YaIMga nisbatan ulushi yuqori ekanligi qayd etilgan. Hindiston va Braziliyada esa jon boshiga premuim ko‘rsatkichi juda past bo‘lib, bu mamlakatlarda sug‘urta bozori rivojlanish bosqichida ekanligini ko‘rsatadi.

3-jadval

2018–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta tashkilotlari tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlarining o‘shish dinamikasi¹⁴

Yillar	Sug‘urta mukofotlarining hajmi mlrd so‘m	O‘shish			
		Miqdor (mlrd so‘mda)		%da	
		Oldingi yillar bilan taqqoslanganda	2018-yil bilan taqqoslanganda	Oldingi yillar bilan taqqoslanganda	2018-yil bilan taqqoslanganda
2018	1635,2	707,8	-	176,3	-
2019	2313,9	678,7	678.7	141,5	141.5
2020	2213, 7	-100,2	578.5	95,6	135.3
2021	3147,1	933.4	1511.9	142.1	192.4
2022	4707	1559.9	3071.8	167.1	287.8
2023	7737,2	3030.2	6102.0	164.3	473.1
2024	9483,7	1746.5	7848.5	122.5	579.9

Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati so‘nggi yetti yilda barqaror va izchil o‘shib borgan. Bu sug‘urta bozoridagi barqarorlikni, kapital yetarliligini va kelajakda ham bozor rivoji uchun yaxshi asos borligini ko‘rsatadi.

Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish, nafaqat moliyaviy operatsiyalarni qayd etish, balki sug‘urta faoliyatining barcha iqtisodiy ko‘rsatkichlarini to‘liq va haqqoniy aks ettirish, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborotlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu hisob turi, sug‘urta shartnomalarining xususiyati, tavakkalchilikni qayta taqsimlash mexanizmlari va uzoq muddatli majburiyatlar mavjudligini hisobga olgan holda, maxsus tamoyil va qoidalarga asoslangan holda yuritilishi lozim.

Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillariga xolislik, ehtiyotkorlik, haqiqiylik va shaffoflik kabi me‘yorlar kiradi. Ayniqsa, sug‘urta hisobida “matching principle”, ya‘ni daromad va xarajatlarni tegishli davrda tan olish tamoyili sug‘urta faoliyati samaradorligini to‘g‘ri baholash uchun juda muhim. Shuningdek, “accrual basis”, ya‘ni hisobga olishning amalga oshishi emas, balki majburiyat va foyda yuzaga kelishi tamoyili ham sug‘urta faoliyatiga to‘liq tatbiq etilishi lozim.

Daromad va xarajatlarni aniq mezonlar asosida tan olish, MHXS (IFRS 17, IAS 1, IAS 37 va boshqalar) talablariga muvofiq holda amalga oshirilishi zarur.

¹⁴ Muallif tomonidan <https://napp.uz/uz>. O‘zbekiston Respublikasida 2018–2024-yillarda sug‘urta agentligining hisoboti asosida tayyorlangan.

Masalan, daromad faqat pul tushumi shaklidagina emas, balki kelgusida qiymat yaratishga xizmat qiladigan manba sifatida tan olinishi lozim. Xarajatlar esa, tegishli majburiyat yuzaga kelganda, hali pul chiqimi sodir bo'lmagan oldin ham tan olinishi mumkin.

Bunday nazariy yondashuv orqali sug'urta tashkilotlarining moliyaviy holati va faoliyati to'g'risidagi hisobotlar nafaqat ichki menejment, balki davlat nazorati, soliq organlari va investorlar uchun ham ishonchli hamda tahlil etishga yaroqli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Sug'urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olishning amaldagi holati va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg'unlashtirish masalalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida sug'urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarning turkumlanishi, hisobga olishning amaliy jihatlari hamda sug'urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olishning xalqaro tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llashda vujudga keladigan muammolar yoritib o'tilgan.

MHXS va BHMSlarida sug'urta tashkilotlarining daromatlari va xarajatlarini tan olish va hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinmagan yoki umumiy tartibda yoritilgan. Bu borada A.Z. Avlokulov fikr yuritib, “Xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha tushumlar” nomli 15-son MHXS moliyaviy hisobotlarda odatiy faoliyatdan olinadigan daromatlarni baholash, aniqlash, hisobga olish va aks ettirish uchun MHXS tizimida ilgari qo'llanilgan yondashuvni sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Buxgalteriya hisobini MHXSga moslashtirishga qaratilgan umumiy yo'nalish buxgalteriya hisobi qoidalarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi¹⁵, deya ta'kidlagan.

Xorijiy davlatlar olimlari ham mazkur mavzuga o'z munosabatlarini bildirganlar. I.V. Shaposhnikovaning fikricha, “Moliyaviy natija sug'urta tashkilotining iqtisodiy faoliyatini yakuniy natijasidir. Sug'urta kompaniyasining moliyaviy natijasi bo'lib, hisobot davrida o'z faoliyati davomida shakllangan foyda yoki zarar ko'rinishida ifodalangan kapitalning ko'payishi (kamayishi) hisoblanadi”¹⁶.


O.S. Krasova ta'kidlashicha “Korxona xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi kalendar (xo'jalik) yil davomida shakllangan foyda yoki zarar ko'rsatkichi bilan aniqlanadi. Moliyaviy natija – bu korxona daromatlari va xarajatlari o'rtasidagi farq. Daromadlarning xarajatlardan oshishi korxona mol-mulkingning ko'payishi – foyda va xarajatlarning daromaddan – oshib ketish zararini anglatadi¹⁷.

Shu bilan bir qatorda e'tirof etish joizki, 17-son MHXS bo'yicha daromad va xarajatlarni tan olish, baholash va hisobda aks ettirishda bir qator xususiyatli jihatlari keltirilgan (1-rasm).

¹⁵ Avlokulov A.Z. “Moliyaviy natijalar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish” Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. T.: 2019 y. 72 bet.

¹⁶ Шапошникова И.В. Бухгалтерский учет и отчетность в страховых организациях: учебное пособие для студентов, обучающихся по направлению подготовки 080100.62 «Экономика» (профиль «Бухгалтерский учет, анализ и аудит») / сост. И.В. Шапошникова/ Саратовский государственный социально-экономический университет. – Саратов, 2013. – 180 с.

¹⁷ Красова О.С. Бухгалтерский учет в страховании. Практическое пособие. Москва: «Омега-Л», 2009, 69 с.



1-rasm. MHXS bo'yicha daromadlarning turkumlanishi¹⁸

Iqtisodchi olimlar fikrlarini umumlashtirish, tahlil qilish va MHXS bilan solishtirish asnosida sug'urta tashkilotlarida daromad va xarajat tushunchasiga yangi mualliflik yondashuvi shakllantirildi:

“Sug'urta tashkilotlari daromadlari bu – mijoz bilan tuzilgan shartnoma asosida to'langan mukofotlarning miqdori emas, balki xizmat muddati davomida amaliy ko'rsatilgan sug'urta xizmat birliklari, xavfni kamaytiruvchi omillar va tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tan olingan xizmat qiymati hisoblanadigan kompleks iqtisodiy kategoriyadir”.

“Sug'urta tashkilotlari xarajatlari bu – sug'urta mahsulotini tayyorlash, baholash, to'lov qilish, nazorat va ma'muriy jarayonlarni amalga oshirishda sarflanadigan resurslarning qiymat ifodasi bo'lib, ular funksional jarayonlar asosida turkumlanib, sug'urta faoliyati samaradorligini belgilab beruvchi iqtisodiy kategoriyadir”.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatida turli xil manbalardan daromad olinadi. Ular turkumiga sug'urta mukofotlari, qayta sug'urta shartnomalaridan olinadigan daromadlar, investitsion faoliyatdan tushumlar hamda boshqa operatsion daromadlar kiradi. Ushbu daromadlarni to'g'ri va shaffof hisobga olish, xalqaro va milliy moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tan olish usullarini qo'llash sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligini aniq baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug'urta tashkilotlarida xarajatlarni turkumlash – moliyaviy hisobot va xatarlarni baholashda juda muhim bo'lib, to'g'ri turkumlanmagan xarajatlar moliyaviy samaradorlikni pasaytiradi, hisobot ma'lumotlarining noto'g'ri shakllanishiga olib keladi va noto'g'ri boshqaruv qabul qilinishiga sabab bo'ladi. Ko'pgina sug'urta tashkilotlarida xarajatlar umumiy guruhlar ostida qayd etiladi: ma'muriy, agentlik, ish yuritish va boshqa operatsion xarajatlar. Aniqrog'i, asosiy (sug'urta), investitsion va qayta sug'urta faoliyati xarajatlari alohida turkumlanmaydi. Schyotlar tuzilishida ko'rishimiz mumkinki, schyotlar rejasi ko'p hollarda milliy standartlarga asoslangan, to'liq detallashtirilmagan.

¹⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shuningdek, sugʻurta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlar (IFRS 17) talab qiladigan darajada olib borilmaydi. Xarajatlarning buxgalteriya hisobi qoʻlda yoki yarim avtomatlashtirilgan tizimlarda yuritiladi, integratsiya mavjud emas. Faoliyat turlari boʻyicha xarajatlar avtomatik tarzda ajratilmaydi. Sugʻurta tashkilotlarida xarajatlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarning tezkorligini, aniqligini va shaffofligini taʼminlash maqsadida turkumlanishi taklif etildi (4-jadval).


4-jadval

Sugʻurta tashkilotlarida xarajatlarning turkumlanishining hozirgi holati va uni takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar¹⁹

Xarajat turi (BHMS kodi)	Hozirgi holat	Muammoli jihatlar	Takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar
Sugʻurtaga oid xarajatlar	Koʻpincha mijozlarga toʻlanadigan kompen satsiyalar sifatida hisoblanadi	Zararlarni hisoblashda kechikishlar va notoʻgʻri hisoblash holatlari mavjud	Avtomatik zararlarni baholash va firibgarlik holatlarini aniqlash tizimlarini joriy etish
Maʼmuriy xarajatlar	Ofis, kadrlar va boshqa maʼmuriy xarajatlar yuqori darajada	Resurslarni notoʻgʻri taqsimlash va xarajatlarning samarasiz boshqarilishi.	Biznes-jarayonlarni optimallashtirish va xarajatlar monitoringini kuchaytirish. Ish yuritish xarajatlardan funksional jihatdan ajratish
Marketing va reklama xarajatlari	Reklama va marketing uchun katta mablagʻ sarflanadi	Samarasiz marketing kompaniyalari va natijalarni toʻgʻri baholashda qiyinchiliklar	Raqamli marketingga oʻtish va mijozlarni aniqlash orqali samaradorlikni oshirish. Marketing, reklama sotish va ish yuritish xarajatlari funksional jihatdan ajratish
Qayta sugʻurta xarajatlari	Qayta sugʻurta shartnomalariga toʻlovlar amalga oshiriladi	Qayta sugʻurta shartnomalarini tahlil qilishda maʼlumot yetishmasligi	Qayta sugʻurta shartnomalarini detallashtirish va xavflarni samarali boshqarish
Texnik va IT xarajatlari	Texnologiyalarga sarflangan mablagʻlar cheklangan yoki nomuvofiq	Yangi texnologiyalarni joriy etishda kechikish va resurs yetishmovchiligi	IT infratuzilmani modernizatsiya qilish va avtomatlashtirishni kengaytirish

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonning sugʻurta tashkilotlarida daromad va xarajatlarni turkumlashda xalqaro standartlarga toʻliq moslashmaganligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Kompaniyalarning aksariyatida hisob-kitoblarning qoʻlda yuritilishi operatsion samaradorlikni pasaytiradi va moliyaviy hisobotlarda noaniqliklarga olib keladi. Quyidagi rasmda sugʻurta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni MHXS asosida turkumlanishi ifodalangan (2-rasm).

¹⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm. MHXS bo'yicha daromadlar va xarajatlar²⁰

Xalqaro standartlarga moslashtirilgan tizimlarni joriy etish sug'urta tashkilotlari moliyaviy natijalarining shaffofligini oshirish va investorlar ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, marketing va reklama

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

xarajatlariga e'tibor qaratish sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni oshirishda ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sug'urta tashkilotlarining raqamli texnologiyalardan foydalanishini kengaytirish, avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlarini joriy etish va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiqligini ta'minlash sug'urta tashkilotlarining moliyaviy samaradorligini oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Kelajakda xalqaro standartlarni qo'llashni kengaytirish, avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish va daromadlar hamda xarajatlarni aniqroq turkumlash sug'urta kompaniyalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur qadamlar hisoblanadi.

Biz tadqiqot o'tkazgan "MY INSURANCE" aksiyadorlik jamiyatida 2021–2024-yillar uchun moliyaviy natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarini tahlil qildik (5-jadval).

5-jadval

"MU INSURANS" AJ Sug'urta kompaniyasining 2021–2024-yillardagi moliyaviy natijalari to'g'risida ma'lumot, (mlrd so'mda)²¹

	Ko'rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2021-yilga nisbatan 2024-yilda o'zgarish, %
1.	Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan sof tushum	48,72	168,40	240,17	355,14	629
2.	Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar	48,72	168,40	240,17	355,14	629
3.	Ko'rsatilgan sug'urta xizmatlarining tannarxi	27,16	122,51	224,48	325,16	726
4.	Davr xarajatlari, jami	22,31	54,76	49,63	91,17	122,4
5.	Boshqa daromadlar	0,37	1,59	25,74	28,59	7627
6.	Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	(0,37)	(7,28)	(8,2)	(32,6)	(8710)
7.	Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami	3,11	13,82	24,82	33,29	971
8.	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, jami	2,14	1,64	0,008	0,015	(99,3)
9.	Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda	0,59	4,9	16,62	0,68	15,25
10.	Hisobot davrining sof foydasi	0,34	3,28	13,76	0,57	67,6

Yuqoridagi malumotlardan ko'rinib turibdiki. "MY INSURANCE" sug'urta tashkilotida 2021–2024-yillarda "MY INSURANS" AJ sug'urta xizmatlari va tushumlari keskin o'sgan. Biroq sof foyda juda past darajada qolgan 2021-yildagi 0,34 mlrd so'mdan 2024-yilda ham faqat 0,57 mlrd so'mgacha

²¹ "MY INSURANCE" AJning moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

oshgan. Bu kompaniya tushumlari ortib borsa-da, xarajatlar va soliqlar sabab sof foyda mutanosib o'smaganini ko'rsatadi.

6-jadval

“MY INSURANCE” AJ 2021–2024-yillar xarajatlari tahlili, (mlrd so'm)²²

Xarajat turlari	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2021-yilga nisbatan 2024-yil (%)
Sug'urta xizmatlari tannarxi	27,16	122,51	224,48	325,16	1097,20
Qayta sug'urta mukofotlari	1,35	1,16	0,96	0,89	(34,07)
Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi	47,36	8,65	90,47	62,28	31,50
Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o'zgarishi	0,34	0,02	0,65	0,63	85,29
Xabar qilinmagan zararlar zaxirasi o'zgarishi	2,86	6,58	5,92	9,74	240,56
Sotish xarajatlari	-	0,005	8,20	14,49	-
Ma'muriy xarajatlar	12,62	38,39	22,97	51,38	307,13
Boshqa operatsion xarajatlar	9,69	16,37	18,47	25,30	161,09
Davr xarajatlari (jami)	22,31	54,76	49,63	91,17	308,65
Moliyaviy faoliyat xarajatlari (jami)	2,14	1,64	0,008	0,015	(99,30)
Foyda solig'i	0,09	0,93	2,85	0,11	22,22

6-jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, 2021–2024-yillar davomida sug'urta xizmatlari tannarxi 2021-yildagi 27,16 mlrd so'mdan 2024-yilda 325,16 mlrd so'mgacha o'sib 1097,2 %ga ko'paygan. Bu kompaniya miqyosi va faoliyati kengayganini anglatadi. Qayta sug'urta mukofotlari aksincha, 34 %ga pasaygan. Bu qayta sug'urta shartnomalarini qayta ko'rib chiqish yoki hajmni qisqartirish bilan izohlanishi mumkin. Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi 31,5 %ga ortib, 62,28 mlrd so'mni tashkil etdi, bu esa mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamining kengayishidan dalolat beradi. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi 85,3 %ga o'sib, sug'urta portfelida xavflarning ortishiga ishora qilmoqda. Xabar qilinmagan zararlar zaxirasi 240,6 %ga oshib, sug'urtachi kompaniyaning ehtimoliy to'lovlari sezilarli ko'payganini ko'rsatadi. Ma'muriy xarajatlar (307,1 %) va boshqa operatsion xarajatlar (161 %) katta sur'atda o'sgan. Bu kompaniyaning boshqaruv va infratuzilma xarajatlari ancha oshganini anglatadi. Davr xarajatlari 308,6 %ga ko'payib, 91,17 mlrd so'mni tashkil etdi. Moliyaviy faoliyat xarajatlari esa 2021-yilga nisbatan 99,3 %ga pasaygan. Foyda solig'i 22,2 %ga ko'paygani kompaniya moliyaviy natijalarining o'sishini ifodalaydi.

“MY INSURANCE” AJning xarajatlari 2021–2024-yillarda bir necha baravarga oshgan, ayniqsa sug'urta xizmatlari tannarxi, ma'muriy va davr xarajatlari keskin o'sish bilan ajralib turadi. Bu sug'urta portfeli hajmi va miqyosi kengayganidan dalolat bersa-da, xarajatlarning yuqori sur'atlarda o'sishi

²² “MY INSURANCE” AJning moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

kompaniya moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun xarajatlarni optimallashtirish, ayniqsa ma'muriy va operatsion xarajatlarni samarali boshqarish muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida daromadlar va xarajatlarni hisobga olishni takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida, sug'urta tashkilotlarida daromadlar hisobini xalqaro tajribasi va xarajatlarni MHXSlari asosida tan olish hamda hisobini takomillashtirish yo'llari yoritib berilgan.

Hozirda amaldagi schyotlar rejasida sug'urta tashkilotlarining xarajatlari, ayniqsa, investitsion faoliyat bilan bog'liq xarajatlar alohida ajratib ko'rsatilmagan. Bu esa sug'urta kompaniyalarining xarajatlar tahlilini murakkablashtirmoqda.

Sug'urta tashkilotlarida asosiy va investitsion faoliyat xarajatlarini aniq va shaffof hisobga olishni ta'minlash maqsadida sintetik va ishchi schyotlarni takomillashtirish maqsadida - 2111 – Sug'urta zaxiralarini joylashtirish bo'yicha ish yuritish xarajatlari schyotini qo'llashni taklif etamiz.

